XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2023 - yil 13 - yanvar VI-66-18-8-0-K/23 Surxondaryo viloyati hokimligi

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi VI-65-303-8-0-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasi, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga muvofiq hamda viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 4-yanvardagi 22-04-10/7-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” VI-65-303-8-0-K/22-sonli qarorining 4-ilovasi:

1-bandi 7-ustunidagi (Termiz shahri uchun belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdori) “15” raqami, “17” raqamiga;

5-bandining 7-ustunidagi (Muzrabot tumani uchun belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdori) “50” raqami, “65” raqamiga;

7-bandining 10-ustunidagi (Jarqo‘rg‘on tumani uchun belgilangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdori) “50” raqami, “100” raqamiga;

9-bandining 7-ustunidagi (Qiziriq tumani uchun belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdori) “40” raqami, “65” raqamiga;

10-bandining 10-ustunidagi (Sariosiyo tumani uchun belgilangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdori) “50” raqami, “100” raqamiga;

14-bandining 7-ustunidagi (Sherobod tumani uchun belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdori) “40” raqami, “100” raqamiga, 11-ustunidagi (Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq miqdori) “100” raqamidan “0” raqamiga o‘zgartirilsin.

2. Noruda qurilish materiallari olish maqsadida yer qa’ridan foydalanganlik uchun solig‘idan Sherobod tumaniga tushadigan tushum to‘lig‘icha viloyat budjetiga yo‘naltirilsin.

3. Ushbu Kengash qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar 2023-yil 1-yanvardan hisob-kitob qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi **A.R.Choriyev**